

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA XRONOTOPLAR

Yuldasheva Halima Muxitdinovna,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: Halimaxonim@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada adabiyotshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri xronotop shakllarining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Mazkur maqolada she‘riyatda, xususan, atoqli shoir Erkin Vohidov ijodida xronotop masalasi davr va makon nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, real, ijtimoiy, psixologik, milliy.*

Аннотация. *В статье анализируются художественные особенности форм хронотопа, которые являются одной из актуальных проблем литературоведения. В этом смысле в данной статье проблема хронотопа в поэзии, в частности, в творчестве известного поэта Эркина Вахидова, анализируется с точки зрения времени и пространства.*

Ключевые слова: *хронотоп, художественное время, художественное пространство, реальный, социальный, психологический, национальный.*

Annotation. *The article analyzes the artistic features of chronotope forms, one of the pressing problems of literary studies. In this sense, in this article, the issue of chronotope in poetry, in particular, in the work of the famous poet Erkin Vahidov, is analyzed from the point of view of time and space.*

Keywords: *chronotope, artistic time, artistic space, real, social, psychological, national.*

Kirish. Erkin Vohidov dostonlarida voqelikning hayotiyliigi va ishonarliligini ta‘minlashda real xronotopning ahamiyati katta. Jahon adabiyotshunosligida makon va zamon tushunchalari va uning badiiy asardagi vazifalari xususida talay izlanishlar olib borilgan. XX asr rus adabiyotshunosligining darg‘alaridan biri M.Baxtin, badiiy asarning muhim unsurlaridan bo‘lgan xronotop tushunchasini tahlil qilib, shunday ta‘rif beradi: “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop, deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelinadi. Istilohning biz uchun matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma‘noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda ifodalashidir” [Baxtin M.1975:66]. O‘zbek adabiy tanqidchiligining taniqli namoyandasi U. Jo‘raqulov Baxtin qarashlarini o‘rganib, xronotop tushunchasi badiiy asarning muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan eng muhim omillardan ekanini ta‘kidlaydi: “Biz har qanday adabiy janr fazilatini, syujeti va obrazlari mohiyatini bu nazariy tushunchasiz to‘la anglay olmaymiz” [Jo‘raqulov U. 2015:200].

Atoqli adabiyotshunos olim Naim Karimov Erkin Vohidov bilan suhbatlarning birida: “Qaysi asarlaringizni ko‘proq qadrlaysiz? Qaysi asarlaringizda xalq dardi va tashvishlari ko‘proq ochilgan, deb bilasiz?” – deb savol berganlarida, Erkin Vohidov: “Tirik sayyoralar” kitobi, “Ruhlar isyoni” va “Istanbul fojiasi”. Farzandning eng kichigi

sevimli bo‘lganday, bu asarlar so‘nggi yillarning mevasi bo‘lgani uchun ham menga qadrlı”, – javob bergan ekanlar [Vohidov E.1988:1]. 1988-yil – hali mustaqillik shabadasi ham sezilmagan zamonlarda jasorat bilan “yurak yutib” yozilgan “Ruhlar isyoni” dostoni xususida aytilajak so‘zlar ko‘p. Erkka tashna hassos shoir mazkur suhbatda “adabiyotning san‘at ekanligini unutmashlik”ni ta’kidlaydi. Goh hayotning yorug‘ tomonlarini bo‘rttirib yozish, goh xato va kamchiliklarni ko‘proq qalamga olish odatga aylangan kezlarda, she’riyatning vazifasi “baxtli hayotimizni madh etmoq” dan “xalq dardi, hayot muammolari haqida bong urmoq”qa ko‘chgan davr shoirlari ijodiga nazar solsak, Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda “el ko‘nglidagini topish va el ko‘ngliga yo‘l topish – bu she’riyat, san‘at. Mana bu yo‘lda shirin jondan kechmoq kerak... Shoir – jamiyatni olg‘a boshlovchi odam, u jangchi, fidoyi, kelajak xizmatkori, hokazo, hokazo. Lekin bularning barchasi, avvalo, shoir bo‘lishni, shoirlik san‘atiga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Sehr darajasidagi yuksak san‘at bo‘lmagan joyda qolgan hammasi – behuda kuchanish, quruq gap” dir [Vohidov E.1988:1].

Muhokama va natijalar. “Ruhlar isyoni” dostonida shoirlikning ana shunday san‘at darajasiga ko‘tarilishi yoxud ijodkor shaxsidagi iste’dodning mohiyati chuqur falsafiy asoslarda aks etgan. Erkin Vohidov dostonning bosh qahramoni Nazrul Islom hayoti, faoliyati va ijodi misolida shoir o‘zligini, qalb kechinmalarini, yurak tug‘yonlarini ifoda etadi. Ijodkor qalamga olgan har bir qahramon shoirning yurak qatidagi tuyg‘ularini aks ettirishi jihatidan ham, o‘quvchida chuqur hissiy tebranishni yuzaga keltiradi. Shu ma’noda Erkin Vohidov bengal xalqining fidoyi farzandi tilidan irod etayotgan dardli nola asli shoirning o‘z yuragidan sizib chiqayotgan faryod edi. Bu faryod shashqator savollar tizimida muallifning o‘ziga beriladigan savollarida aks etadi:

Elga bukun
Darkormisan,
der menga.
Fidolikka xalqing uchun
Tayyormisan,
der menga.

Biroq erk oshig‘ining umr mazmuni – ozodlik, qismati –shoirlik. Yana shunisi aniqki, “Shoirlik – yurakda qon – silqib turgan jarohat”dir. O‘zbekning jo‘mard shoirlaridan biri Shavkat Rahmon aytganidek: “Shoir uchun osuda baxt, farog‘at begona, chunki xalqi baxtiyor bo‘lmagan shoirning baxtli bo‘lmog‘i yolg‘ondir:

Avvalo bu so‘zni o‘zgalar aytsin,
Aytsinlar ko‘zlari quvonchga to‘lib.
Elning baxti uchun umrini tikkan
Shoirlar aytmasin birinchi bo‘lib.

Holbuki, “g‘am so‘zin eldan avvalroq, baxt so‘zin eldan keyinroq aytadigan” [Sh.Rahmon. Saylanma:61] ijod ahli bir zum orom olishga haqli emas, to tirik ekan, bedor yashashga mahkumdir.

Tilamasman bir zum orom,

To tiriksan,

Bedor bo‘l.

Azob bersin senga ilhom,

She‘r dardida bemor bo‘l.

Taqdiringdan senga dunyo

Rohatlarin so‘rmasman.

O‘z qismatim

senga ammo

Sira ravo ko‘rmasman [Vohidov E. 2018:90].

Hurlikka intiq elga baxtli hayotni madh etib, “xalq dardi, hayot muammolari haqida bong uradigan” shoirlar emas, haqiqiy daholar kerak. “Daho deganda, men zamon tafakkuridan ilgarilab ketgan aqlni, davrni va ommani olg‘a harakat qildiruvchi aqlni tushunaman, – deydi Erkin Vohidov o‘sha suhbatda. — Xalqni maqtagan shoir ulug‘ emas, uning o‘zligini o‘ziga ko‘rsatib berolgan, ayovsiz gapni aytolgan shoir ulug‘dir” [Vohidov E.1988:1]. Biroq ayovsiz gapni aytish ham oson kechmagan shoirga. “Inson huquqini poymol qilgan zamon bilan yuzma-yuz kelganda, *dil majruh, anorning donasidek qontalash* bo‘lganda, shoir iztirobga to‘lib-toshadi. Bu iztirobning boisi xalq kechmishiga qayg‘urish, uning ertasini ozod ko‘rish istagi edi” [H.Boltaboyev, 2006:90].

Haqiqat uchun jonini tikkan shoirni qadrlashi lozim bo‘lganlar chinakam xalq emas, olomon bo‘lsa-chi? Erkin Vohidov “Og‘riqli savollar” she‘rida go‘yoki shu savolga javob berayotganday.

“Dil olami, ishq olami, ruh olami bo‘lmagan,

Imonni ham, vijdonni ham qurbon qilgan halqum deb,

Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?”

“Ruhlar isyoni” dostonining bosh g‘oyasi – jaholatga qarshi isyon, istibdodga bo‘yin egmay, erk va ozodlik, o‘zlikni anglab yashash uchun intilish. Dostonning “Jaholat to‘g‘risida rivoyat” faslida qalb ko‘zi ko‘r olomonning jaholati, nodon, gumroh kimsalarning xurofoti sabab odam bolasining dardiga malham bo‘layotgan hakim o‘tda yondirildi. Jaholat ahli donishmand zot – hakimning qurbon bo‘lishiga g‘ofillarcha tomoshabin bo‘ldi. Jaholatning bosh sababi – g‘aflat. Professor Nurboy Jabborov Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilar ekan, g‘ofillikning zarari xususida shunday yozadi: “Dunyoda nima yomon – g‘ofillik yomon. Bundan ham yomoni, insonning ogohlikdan

ko‘ra g‘aflatga moyilroq ekanidir. O‘zining g‘aflatda qolganini anglash ham saodatdir. G‘ofil bo‘lsa-yu, g‘aflatda ekanini ham his etmasa, badbaxtlik bundan ortiq bo‘lmas” [Jabborov N, 2021:66]. G‘aflatga moyillik, jaholatga bosh egish qon-qoniga singib ketgan so‘qir banda ham ana shunday: “g‘aflatda ekanini ham his etmaydigan” badbaxt kimsa. Ushbu rivoyatning tagma‘nosi millatimizning saodati uchun jon fido qilgan ajdodlar kechmishiga ishora qiladi. Umuman olganda, dostonda boshdan-oyoq majoziy ma‘no hukm suradi. Buyuk turkiylar, o‘ziga bek millat qahramonlarining fojiasiga tomoshabin bo‘lgan loqaydlik va g‘aflat bandalari uchun o‘z qursog‘idan muhim masala bo‘lmagan. Shoirni o‘rtagan muammolar quyidagi misralarda yanada ishonarli aks etgan:

Shafqat ila kim non-u,
kim chaqa tashlab ketardi.
Men ham
shunga ko‘ngan edim,
Menga shu ham yetardi.

Voqealar Hind diyorida yuz berayotganiga qaramay, makon tushunchasi majozda hududiy cheklanishni inkor etib, har bir mustamlaka mamlakatda, xususan, yurtimizda milliy ozodlik yo‘lida boy berilgan qurbonlar – nodir iste‘dodlar evaziga erishilgan buyuk ne‘mat – hurlik, mustaqillik osonlik bilan qo‘lga kiritilmaganligini anglatadi. Doston qahramonlaridan biri – ko‘zi ochilgan so‘qir obrazi dunyoning musaffolik, soddalik o‘rniga berahmlilik, soxtalik, o‘g‘rilik va fahsh bilan to‘lganini ko‘rgach:

Bu dunyodan
To‘ydim oxir,
Ado bo‘lsam mayliga.
Yo qaytadan o‘sha basir
Gado bo‘lsam mayliga, – deya shirin joni halovatini buzganidan donishmand hakimga ta‘na-yu dashnomlar qiladi. Butun millat ruhiyatini yanchib tashlamoqchi bo‘lgan mustabidlar zulmiga qarshi hasrat olovini yoqqan va qalbida isyon jo‘sh urgan Cho‘lponning “Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ulg‘onsen!” misralari millat fojiasini o‘z qismatidan ayro bilgan, xalq bo‘la olmagan olomonga qaratilgan hayqiriq edi go‘yo!

Xulosa. Erkin Vohidov doston fasllarida turli-tuman ajoyib rivoyatlar vositasida Nazrul Islomning ayanchli taqdirini hikoya qilarkan, bu kechmish bir vosita xolos, aslida shoir qalbini tirnab yotgan dard – “shoirning dilin ezgan istibdodning dardi, yurakdan qon bo‘lib sizgan iste‘dodning dardi” edi. Erkin Vohidov tanlagan xronotopning bu shakli millatni sevgani, o‘zligini tanigani va tanitgani qatliga sabab bo‘lgan milliy ozodligimiz fidoyilari, jadid bobolar, qalb buyrug‘i a‘moliga aylangan

chinakam xalq shoirlari hayoti va faoliyatining ko‘zgusi edi aslida! Adabiyotshunoslikda makon va zamon xronotopi ko‘chirilishining yorqin namunasi edi bu! Asarning chop etilishi Erkin Vohidov uchun o‘z vaqtida qator ko‘ngilsizliklarga sabab bo‘lib, aytish mumkinki, “o‘zlikni anglash va sodiq qolish hayot-mamot masalasi bo‘lgan” [To‘laganova S, 2020:25].

Taniqli adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam mazkur asar xususida shunday yozadi: “Ruhlar isyoni”da darj etilgan va dostonning pafosi darajasida kuylangan dard ayni chog‘da bizniki hamdir! U o‘z tuprog‘imizda, o‘z nazrul islomlarimiz qismatlarida misqol-misqol yig‘ilgan va qalb to‘rimizda ardoqlangan, biroq taqdir taqozosi bilan hindistonlik shoir hayot yo‘li misolida aks ettirilgan umuminsoniy darddir!” [Hamdam U, 2007:66].

1978-1979-yillarda yozib tugatilgan, ilk marotaba “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan, Ulug‘bek Hamdam ta‘biri bilan aytganda, “o‘zida shoirning butun jasorati, iste‘dodi, donishmandligini bir nuqtaga jamlagan eng umrzoq, eng jozibali va eng haqiqatparast asar” bo‘lgan ushbu doston yana qator ilmiy izlanishlarga manba bo‘lishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Toshkent: Sharq. 2018. – 450 b.
2. Vohidov E. “She‘riyat — mehr demakdir”. Suhbatdosh: Naim Karimov. “Sharq yulduzi” jurnali, 1988-yil, 1-son.
3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва, 1975. – с. 234.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 560 b.
5. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Toshkent: Адабиёт, 2021. – 304 б.
6. Boltaboyev H. So‘z sehri. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 90 b.
7. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015. – 200 b.
8. To‘laganova S. “Ruhlar isyoni” dostoni tadqiqiga doir. E.Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati. Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Guliston. 2020. –25 b.
9. To‘rayeva B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 1 (42),146-168 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
10. Ulug‘bek Hamdam. Adabiyot – ruhiy ehtiyoj. I.Turlanayotgan so‘z. 1999. (“Yangilanish ehtiyoji” to‘plami, 2007. – 5 b.)
11. Sh.Rahmon.Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 106 b.